

TECNOVE kompaniyasi vakillari TTPUga tashrif buyurdi.

Joriy yilning 21-iyun kuni, Ispaniyaning TECNOVE kompaniyasining moliyaviy masalalar bo'yicha direktori Guzman Martin boshchiligidagi delegatsiya Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetiga tashrif buyurdi.

Uchrashuvda TTPU va TECNOVE kompaniyalari, o'z faoliyatlari to'g'risida o'zaro ma'lumot almashti. Hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarni muhokama qildilar.







Xususan :

- Turin politexnika universiteti va TECNOVE kompaniyasi o'rtasida hamkorlik bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumini imzolash;
- TTPU Texnoparki bilan xalqaro hamkorlik: mashinasozlik yo'nalishida, maxsus texnikalarga xizmat ko'rsatish va foydalanish, biotibbiyot muhandisligi sohasida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish va boshqa masalalar muhokama qilindi.

Ma'lumot o'rnida: TECNOVE kompaniyasi, 35 yillik tajribaga ega bo'lib, Yevropa mamlakatlarida 10 dan ortiq o'z markazlariga egadir, umumiy ovqatlanish zonalari, modulli binolar va vaqtinchalik statsionar inshootlarni ta'mirlash va qurish bilan shug'ullanadi.